

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№4

2025
APREL




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE


Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
344 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatiliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevd Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	



O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna

Termiz davlat universiteti erkin tadqiqodchisi

lola.djurayeva.81@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0009-0131-8719>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari yoritilgan. Unda kichik biznesning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlovchi choralar, mavjud infratuzilma va moliyaviy yordam mexanizmlari haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada raqamli texnologiyalarni joriy etish, eksport salohiyatini oshirish, kadrlar salohiyatini kuchaytirish hamda hududiy tadbirkorlikni rivojlantirish kabi dolzarb yo'nalishlar asosida tahliliy yondashuv taklif etilgan. Muallif kichik biznesni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlarni taklif qiladi va sohaga oid strategik yondashuvlarni asoslaydi.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, bandlik, ishsizlik, tadbirkorlik bosqichlari, kredit.

Abstract: This article covers the areas of development of small business activities in Uzbekistan. It discusses the economic and social importance of small business, support measures provided by the state, existing infrastructure and financial assistance mechanisms. The article also proposes an analytical approach based on such topical areas as the introduction of digital technologies, increasing export potential, strengthening human resources, and developing regional entrepreneurship. The author proposes measures necessary for the further development of small business and justifies strategic approaches to the sector.

Keywords: entrepreneurship, small business, employment, unemployment, entrepreneurial stages, credit.

Аннотация: В данной статье рассматриваются направления развития малого бизнеса в Узбекистане. В нем обсуждается экономическое и социальное значение малого бизнеса, меры поддержки, предоставляемые государством, существующая инфраструктура и механизмы финансовой поддержки. В статье также предлагается аналитический подход, основанный на таких актуальных направлениях, как внедрение цифровых технологий, повышение экспортного потенциала, укрепление кадрового потенциала и развитие регионального предпринимательства. Автор предлагает меры, необходимые для дальнейшего развития малого бизнеса, и обосновывает стратегические подходы к отрасли.

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, занятость, безработица, стадии предпринимательства, кредит.



KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida har bir mamlakat uchun iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi o'rni tobora ortib bormoqda. O'zbekiston ham mazkur yo'nalishda izchil islohotlar olib borib, kichik biznesni iqtisodiy taraqqiyotning muhim drayveri sifatida ilgari surmoqda. Jumladan, hududiy rivojlanish, bandlik darajasini oshirish hamda eksport salohiyatini kengaytirishda kichik biznesning roli beqiyosdir.

Ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 60–70 foizi aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa ushbu sektorning iqtisodiyotda tutgan mustahkam o'rnini ko'rsatadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning rivojlanishi iqtisodiy faollikni kuchaytirish, raqobat muhitini yaxshilash, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to'ldirish, talabni rag'batlantirish hamda byudjet tushumlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois ko'plab davlatlar kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratmoqda¹.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarini shakllantirish, ularni samarali va maqsadli yo'naltirish, shuningdek, ushbu resurslardan foydalanish samaradorligini baholash masalalari ko'plab xorijiy olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Jumladan, V.V. Bocharov, V. Berens, P.M. Xavranek, V.Y. Katasonov, D.S. Morozov, M.V. Petrov, G.I. Prosvetov, I.I. Ushakov, B.T. Kuznetsov va I.F. Muxar kabi iqtisodchilar ushbu yo'nalishda muhim ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

Bundan tashqari, kichik biznes subyektlari moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan samarali foydalanish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan ilmiy ishlari bilan B.A. Koltinyuk, N.N. Leventsev, G.M. Kostyunina, A.S. Neshitoy, I.V. Sergeev va E.S. Xazanovich kabi tadqiqotchilar ham ajralib turadi.

Mazkur masalalar O'zbekiston olimlari tomonidan ham keng ko'lamda o'rganilgan. Jumladan, N. Maxmudov, Sh. Majidov, N. Haydarov, A. Uzoqov, R. Saidov, M. Sultanov, A. Juraev, D. Xo'jamqulov, B. Mamatov, Sh. Ergasheva, N. Karimov, N. Kenjaev va E. Nosirovlarning ilmiy izlanishlarida kichik biznes subyektlarining investitsiya jarayonlarida ishtiroki, moliyalashtirishning milliy xususiyatlari, investitsiyalar samaradorligini baholash mezonlari chuqur tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy tahlilning asosiy usullari – abstraksiyalash, kuzatish, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanilgan. Abstraksiyalash orqali mavzuga oid tushunchalar umumlashtirilgan, kuzatish yordamida amaliy holatlar o'rganilgan, induksiya orqali muayyan faktlardan umumiy xulosalar chiqarilgan, deduksiya metodi esa nazariy qoidalarni amaliy misollarda sinovdan o'tkazish uchun qo'llanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Taraqqiyotimizning yangi bosqichida mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining izchil rivojlanayotganligini har 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi tadbirkorlik subyektlari soni misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, bu ko'rsatkich 2017–yilda 12,2 birlikni tashkil qilgan bo'lsa, 2020–yilda 15,6 birlikka, 2022–yilda esa 19,9 birlikka yetgan.

Yangidan tashkil etilgan korxonalar bozor talablari hamda so'nggi texnologik yangilik va yutuqlarni o'zida mujassamlashtirib, ularni amaliyotga tatbiq etadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka iqtisodiyotga yangi kuch sifatida qaraladi. Bu subyektlar zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirgan holda, innovatsion yechimlarni ishlab chiqarish jarayoniga joriy qilmoqda.

¹ <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes-iqtisodiyotning-qon-tomiri>

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining dinamikasini yirik korxonalar bilan solishtirib tahlil qilsak, ushbu farq yaqqol namoyon bo'ladi. Jumladan, 2016–yilda kichik korxonalar faoliyati yirik korxonalarga nisbatan 6,2 marta, 2020–yilda 6,9 marta, 2022–yilda esa 8,2 marta yuqori bo'lgan. Bu holat kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashdagi faol ishtirokini ko'rsatadi.

Ma'lumki, kichik tadbirkorlik subyektlari davlat ko'rsatmalari asosida emas, balki iqtisodiyotdagi kon'yunkturaviy o'zgarishlarni inobatga olgan holda mustaqil tashkil etilmoqda. Bu esa tarmoqlar kesimida yangilanish va tuzilmaviy o'zgarishlarga olib kelmoqda. 2017–2022–yillar davomida tashkil etilgan kichik biznes subyektlarining taqsimoti quyidagicha: sanoat – 21 %, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 12 %, qurilish – 10 %, savdo – 32 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 7 %. Bu ko'rsatkichlar yetakchi tarmoqlar o'rtasida maqbul nisbat shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi yana bir muhim jihati – raqobat muhitini shakllantirish va uning moslashuvchanligini ta'minlashdir. Bu soha iqtisodiy manfaatni maksimallashtirishga yo'naltirilgan bozor bellashuvini rivojlantirib, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida samarali muvozanatni yuzaga keltiradi².

Iqtisodiyotdagi obyektiv jarayonlardan biri – monopoliyalarning vujudga kelishi va ularning amal qilishi hisoblanadi. Monopoliyani to'liq bartaraf etish amalda deyarli imkonsiz. Ba'zan davlatning monopoliyaga qarshi kurashi ham zudlik bilan natija bermaydi. Shu bois, kichik tadbirkorlik subyektlarini keng tashkil etish va ular uchun zaruriy sharoitlarni yaratish orqali bozordagi monopoliya darajasini pasaytirish mumkin.

Kichik biznesning aholiga ish o'rinlari yaratishdagi faolligi, ishsizlikni kamaytirish hamda bandlikni oshirishdagi o'rni ham O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mustaqillikka erishgan ilk yillarda iqtisodiyotdagi o'zgarishlar, ichki va tashqi talab-taklif nomuvofiqligi sababli ishsizlik darajasi keskin oshgan edi. Dastlab bu holat siklik ishsizlik ko'rinishida kuzatilgan bo'lsa, bugungi kunda u tarkibiy ishsizlik shaklida namoyon bo'lmoqda. Bunda ishchi kuchi bozorida talab va taklifning malaka jihatidan nomuvofiqligi asosiy sabab sifatida e'tirof etiladi.

2021–yil boshida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “mahallabay” tizimini joriy etish tashabbusi ilgari surildi. Bu tizim iqtisodiy o'sishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash, har bir mahallaning o'ziga xos “o'sish nuqtalari”ni rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagini bildirgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish, bo'sh turgan bino va yer uchastkalaridan samarali foydalanish, aholini tadbirkorlik ko'nikmalariga o'rgatish orqali ularning bandligiga ko'maklashishni maqsad qilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik orqali aholi bandligi va daromadlari oshmoqda. Bu jarayonda subyektlarning o'z mehnatiga to'lanadigan haq, ijtimoiy transfertlar va mulkdan tushadigan daromadlar orqali bevosita daromadlar shakllanmoqda. Bu esa aholining iqtisodiy faolligini rag'batlantirib, o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash dasturlari doirasida intensiv bog' va tokzorlar barpo etish, issiqxonalar qurish, ularni aholiga lizing va kredit asosida taqdim etish choralari ko'rilmqda. Bu orqali nafaqat bandlik darajasi, balki aholi daromadlari va turmush darajasi ham izchil oshmoqda³.

Surxondaryo viloyatida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni rag'batlantirish, raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish hamda ularning eksportini qo'llab-quvvatlash, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish maqsadida “mahallabay” ishlash tizimi samaradorligini yanada oshirish ko'zda tutilmoqda⁴.

Ushbu maqsadlar uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari quyidagicha yo'naltiriladi:

a) Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi tomorqalaridan samarali foydalanishni rag'batlantirish uchun 100 mln AQSh dollari ekvivalentida mablag' ajratiladi. Shundan:

2 <https://yuz.uz/uz/news/kichik-biznes-iqtisodiyotning-qon-tomiri>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-dekabrda «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sohada qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi PQ-4549-son qarori

4 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-avgust “Surxondaryo viloyatida qo'lay investitsiya muhitini yaratish, kichik biznes va tadbirkorlikni rag'batlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” PQ-5228-sonli qarori



- 30 mln AQSh dollari 3 yillik imtiyozli davr bilan, yillik 10 % stavkada, 7 yil muddatga “Milliy bank” AJga, u orqali esa boshqa tijorat banklariga yo'naltiriladi. Mazkur mablag'lar “Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida loyihalarni moliyalashtirish uchun ajratiladi. Tijorat banklari kreditlarni Markaziy bankning asosiy stavkasiga teng foiz stavkasi bilan taqdim etadi.

- 10 mln AQSh dollari “Turonbank” ATB ustav kapitalidagi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi ulushini oshirish orqali Surxondaryo viloyatida limonchilik loyihalarini moliyalashtirish uchun ajratiladi.

- 60 mln AQSh dollari “Milliy bank” AJ va boshqa tijorat banklari orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi past, ishsizlik darajasi esa yuqori bo'lgan mahallalardagi “yetakchi” tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish uchun yo'naltiriladi. Ushbu mablag' 3 yillik imtiyozli davr bilan, yillik 7 % stavkada, 7 yil muddatga ajratiladi. Har bir mahallaga 2 mlrd so'mgacha kreditlar yillik 10 % stavkada beriladi.

b) Viloyatda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish, infratuzilmani rivojlantirish va eksportyorlarni aylanma mablag' bilan ta'minlash uchun 50 mln AQSh dollari miqdoridagi mablag' 3 yillik imtiyozli davr bilan, yillik 2,5 % stavkada, 10 yil muddatga “Milliy bank” AJ va boshqa tijorat banklariga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, Surxondaryo viloyatidagi mahalliy sanoat korxonalari 2024–yil 1–iyulga qadar faqat o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob-uskuna, ehtiyot qismlar va butlovchi qismlar uchun bojxona to'lovlaridan ozod etiladi.

2022–yil davomida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kredit ajratish tartiblari soddalashtirildi. Quyidagi yo'nalishlarda imtiyozli kreditlar ajratilishi belgilangan:

- Maqsadli jamg'armalar va Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi resurslari tijorat banklariga yillik 10 % stavkada joylashtiriladi;

- Imtiyozli kreditlar esa yillik 14 % stavkada quyidagi shartlarda taqdim etiladi:

- Oilaviy tadbirkorlik yoki daromad manbaini kengaytirish istagini bildirgan aholi uchun – 3 oydan 6 oygacha imtiyozli davr bilan, 3 yilgacha muddatga;

- Chorvachilik (qoramol, qo'y, echki), baliqchilik va tuxum yo'nalishidagi parrandachilik uchun – 1 yilgacha imtiyozli davr bilan, 3 yilgacha muddatga;

- Bog'dorchilik, uzumchilik, limonchilik, issiqxona qurilishi va qishloq xo'jaligi texnikasi xarid qilish uchun – 3 yilgacha imtiyozli davr bilan, 7 yilgacha muddatga;

- “Hunarmand” uyushmasi a'zolari uchun – asbob-uskuna, xomashyo va ehtiyot qismlar xarid qilish, ustaxona, uy-muzey va “usta-shogird” maktablarini tashkil etish uchun 3 yilgacha muddatga hamda aylanma mablag'larni to'ldirish uchun 18 oygacha muddatga⁵.

Har bir mahallada ushbu kreditlar tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Jumladan, kamida 10 dan 50 boshgacha chetdan keltirilgan naslli chorva mollarini boqishga mo'ljallangan kichik fermalar tashkil etishga ham kredit ajratiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jamiyatda o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish, raqobat muhitini rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sishga erishish uchun muhim omil hisoblanadi.⁶ Ularni qo'llab-quvvatlash iqtisodiyotda bandlik darajasini oshirish va aholi daromadlarini ko'paytirish orqali YalMda ulushining ortishiga xizmat qilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda YalM 2021–yilda 734 587,7 trln so'mni tashkil etib, 2020–yilga nisbatan 7,4 % ga oshgan. Kichik biznes subyektlarida jami mehnat bilan band bo'lgan aholining 78,2 % i faoliyat yuritmoqda. 2022–yilda esa YalMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi 67,3 % ni yoki 129 301 mlrd so'mni tashkil qilgan.

Taqqoslash uchun, bu ko'rsatkich:

- Yaponiyada – 55 %,

- Germaniyada – 54 %,

- AQShda – 52 %,

5 Oilaviy tadbirkorlik uchun 14 foiz stavkada imtiyozli kreditlar ajratiladi – O'zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/12/21/credits/>

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2016-yil 5-oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-4848-son Farmoni

- Qozog'istonda – 25,6 %,
- Rossiyada – 20 % ni tashkil etadi.⁷

Kichik biznes iqtisodiy o'zgarishlarga tez moslasha oladigan soha bo'lib, ichki bozorni tovarlar bilan to'ldirish, zamonaviy xizmat turlarini joriy etish, eksport hajmini kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda qabul qilingan huquqiy-huquqiy qarorlar, ro'yxatga olish tizimining soddalashtirilishi, tekshiruvlar sonining kamaytirilishi va qulay biznes muhit yaratilgani kichik biznesning tashqi savdodagi faolligini sezilarli oshirdi. Shu bilan birga, 2019–yil 1-oktyabrdan boshlab kichik biznes subyektlari uchun qo'shimcha qiymat solig'i 15 % etib belgilangan.⁸

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda kichik biznes faoliyatining izchil rivojlanishi iqtisodiyotning barqaror o'sishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va aholining turmush darajasi oshishida muhim rol o'ynamoqda. So'nggi yillarda ushbu sohani qo'llab-quvvatlash borasida davlat tomonidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq imtiyozlarining joriy etilishi, kredit resurslariga kirish imkoniyatlarining kengaytirilishi, "yagona darcha" tizimi, raqamlashtirish jarayonlari hamda eksportga yo'naltirilgan dasturlar kichik tadbirkorlikning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Sohafa mavjud muammolarni bartaraf etish va kichik biznesni yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish: Mikromoliya tashkilotlari faoliyatini kuchaytirish, garovsiz va past foizli kreditlar ajratish mexanizmini joriy etish;
- Tadbirkorlik ta'limini rivojlantirish: Maktab ta'limidan boshlab oliy ta'lim tizimigacha tadbirkorlik asoslarini o'qitish, yoshlar va ayollar uchun maxsus treninglar hamda inkubatsiya dasturlarini tashkil etish;
- Raqamli texnologiyalarni ommalashtirish: Elektron savdo platformalarini yaratish va rivojlantirish, onlayn xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Eksport faoliyatini rag'batlantirish: Kichik biznes mahsulotlarini xalqaro bozorga olib chiqish uchun zarur sertifikatlash, logistika va marketing xizmatlarini subsidiya qilish;
- Davlat–xususiy sheriklikni rivojlantirish: Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash;
- Hududiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash: Har bir hududning ixtisoslashgan yo'nalishlariga mos kichik biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash va mahalliy resurslardan samarali foydalanishni kengaytirish.


Umuman olganda, kichik biznes subyektlarini rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuv, zamonaviy boshqaruv uslublari va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan amaliy yordamlar orqali ushbu sohani yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. 2000–yil 25–may. 3–modda.
2. A. Abdullaev va boshqalar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik: tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish. – Toshkent: "Iqtisodiyot dunyosi", 2021.
3. Дальний Восток в стратегии инновационной политики России начала XXI века в контексте современного исторического знания. – <http://elibrary.ru>
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish. f8335.pdf 11.9 MB (1/2)
5. Лапуста М.Г., Старостин Ю.Л. Малое предпринимательство. – М.: ИНФРА-М, 1997. – С. 5
6. Социально-экономические аспекты развития инновационных процессов малых и средних предприятий.
7. <http://elibrary.ru>

7 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ularni bank tomonidan qullab quvvatlashni takomillashtirish asoslari. <http://elibrary.ru/item.asp?id=36868326>

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi "Soliq va bojxona imtiyozlari berilishini yanada tartibga solish cho-ra-tadbirlari to'g'risi"da PF-5755-sonli Farmoni



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100